QISQACHA MAZMUN
Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (SEP)

Zarafshon 300/600 MVt·soat quvvatga ega Batareyali Energiya Saqlash Tizimi (BESS) loyihasi





1. KIRISH

Abu-Dabi Future Energy Company – Masdar O‘zbekistonning Navoiy viloyati Tomdi tumanidagi taxminan 10 gektar maydonni egallaydigan Zarafshon 300/600 MVt·soat quvvatga ega Batareyali Energiya Saqlash Tizimi (BESS) hamda uni mavjud Muruntov podstansiyasiga ulanadigan 788 metr uzunlikdagi yerosti elektr uzatish liniyasini qurish loyihasini amalga oshirmoqda. BESS elektr energiyasini yirik akkumulyator batareyalarida saqlaydi va zarur bo‘lganda uni elektr tarmog‘iga qayta uzatadi. Bu mamlakatga qayta tiklanuvchi energiyadan samaraliroq foydalanish va elektr ta’minotidagi uzilishlar xavfini kamaytirish imkonini beradi. Loyiha Masdar tomonidan aynan shu maqsadda tashkil etilgan «Zarafshan Energy Storage Foreign Enterprise» MChJ tomonidan amalga oshirilmoqda; mazkur hujjatda ushbu korxona «Loyiha ishlab chiquvchisi» deb yuritiladi.

Loyiha uchun Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (SEP) ishlab chiqilgan. Ushbu qisqacha mazmunda SEPning vazifalari, Loyiha doirasida qaysi tomonlar bilan muloqot olib borilishi, hozirgacha amalga oshirilgan hamkorlik tadbirlari, kelgusidagi rejalar hamda har qanday shaxsning Loyiha yuzasidan tashvish yoki shikoyat bildirish tartibi bayon etiladi.

SEP muntazam yangilanib boradigan hujjatdir. Loyiha rivojlanishi, yangi shaxslar yoki guruhlar jalb etilishi va sharoitlar o‘zgarishi bilan u muntazam ko‘rib chiqiladi va yangilanadi.

2. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK QILISH REJASINING (SEP) MAQSADI VA YONDASHUVI

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish - Loyiha haqida unga qiziqish bildirgan shaxslar va tashkilotlarga axborot taqdim etish, ularning fikrlarini tinglash va ushbu fikrlarni inobatga olish jarayonidir.

SEP Loyiha ishlab chiquvchisi Loyiha amal qilishining barcha bosqichlarida manfaatdor tomonlar bilan qanday hamkorlik qilishini belgilaydi. Xususan, SEP:

- Loyihadan manfaatdor bo‘lgan shaxslar, mahalliy hamjamiyatlar, davlat organlari va tashkilotlarni aniqlaydi;
- har bir guruhga qachon va qanday axborot berilishi hamda ular bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilishini tushuntiradi;
- hozirgacha o‘tkazilgan hamkorlik tadbirlari va bildirilgan fikrlarni qayd etadi;
- Loyiha haqidagi axborot jamoatchilikka qanday taqdim etilishini belgilaydi; hamda
- har qanday shaxs tashvish yoki shikoyatni qanday bildirishi va u qanday ko‘rib chiqilishini tavsiflaydi.

Loyiha ishlab chiquvchisining yondashuvi bir necha oddiy tamoyilga asoslanadi. Hamkorlik erta bosqichda boshlanishi va butun Loyiha davomida olib borilishi lozim. Axborot odamlar tushunadigan shakl va tilda taqdim etilishi kerak. Uchrashuvlar odamlar uchun qulay joy va vaqtda tashkil etilishi zarur. Hech kim bosim yoki qo‘rqitishga duch kelmasligi kerak. Bildirilgan fikrlar esa Loyihani rejalashtirish va boshqarishda amalda inobatga olinishi lozim.

Ishtirok etishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin bo‘lgan shaxslarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Bular jumlasiga ayollar, keksalar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam daromadli oilalar va etnik ozchiliklar kiradi. Zarur hollarda, masalan, ayollar uchun alohida uchrashuvlar o‘tkazish, hamma

uchun qulay joylarni tanlash, mahalliy tillarda materiallar taqdim etish va ushbu guruhlarni yaxshi biladigan mahalla vakillari orqali ishlash kabi qo‘shimcha yordam ko‘rsatiladi.

SEP O‘zbekiston qonunchiligi hamda Loyihani moliyalashtirayotgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (AIIB) talablariga muvofiq tayyorlangan. Loyiha AIIBning Ekologik va ijtimoiy siyosati doirasida B toifasiga kiritilgan, chunki uning salbiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlari son jihatidan cheklangan, asosan Loyiha maydoni bilan bog‘liq va ko‘p hollarda qaytar xususiyatga ega.

3. ASOSIY MANFAATDOR TOMONLAR

Loyiha unga ta’sir ko‘rishi, uni amalga oshirishda ishtirok etishi yoki uni tasdiqlash va nazorat qilish uchun mas’ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan asosiy shaxslar, hamjamiyatlar, davlat organlari va tashkilotlarni aniqlagan. Manfaatdor tomonlarni aniqlash Loyiha davomida davom ettiriladi va zaruratga ko‘ra yangilanadi.

Loyiha bo‘yicha aniqlangan asosiy manfaatdor tomonlar guruhlari quyidagilardan iborat:

- Loyiha ta’siriga uchrashi mumkin bo‘lgan shaxslar. Loyiha maydoniga eng yaqin aholi punkti taxminan 12 km masofada joylashgan Muruntov mahallasidir. Ushbu guruhga mahalliy aholi, mahalla yetakchilari hamda Loyihaga tovar yoki xizmatlar yetkazib berishi mumkin bo‘lgan mahalliy tadbirkorlar kiradi. Ularni, asosan, ish va tadbirkorlik imkoniyatlari, shuningdek qurilish davridagi shovqin, chang va transport qatnovi kabi ta’sirlar qiziqtiradi.

- Loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar. Bunga obyektni quradigan va undan foydalanadigan xodimlar, ular Loyiha ishlab chiquvchisi, qurilish pudratchisi, kelgusidagi operator yoki subpudratchilar tomonidan ishga olinganidan qat’i nazar, kiradi. Shuningdek, Loyihaning talab etilgan ekologik va ijtimoiy standartlarga muvofiq amalga oshirilishini tekshiradigan moliyalashtiruvchi banklar ham ushbu guruhga kiradi.

- Loyihada tegishli vakolatga ega davlat organlari va tashkilotlar. Bular atrof-muhit, suv, sog‘liqni saqlash, transport, mehnat, madaniyat, favqulodda vaziyatlar, konchilik va raqamli infratuzilma uchun mas’ul respublika vazirliklarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, yer masalalari bo‘yicha milliy agentlik, milliy elektr tarmoqlari kompaniyasi hamda yoshlar, oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’ul idoralar kiradi.

- Hududiy va mahalliy hokimiyat organlari. Zarafshon shahar va Tomdi tuman hokimliklari hamda mahalliy aholi manfaatlarini ifodalovchi Muruntov mahallasi. Ularning asosiy manfaatlari mahalliy bandlik, yer masalalari, aholi uchun manfaatlar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq.

- Nodavlat tashkilotlar. Bular yovvoyi tabiatga ta’sir masalalariga qiziqadigan O‘zbekiston qushlarni muhofaza qilish jamiyati, bandlik imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga qiziqadigan O‘zbekiston nogironligi bo‘lgan shaxslar assotsiatsiyasi hamda ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi faoliyat yuritadigan va tegishli shikoyatlar qanday ko‘rib chiqilishiga qiziqadigan «Ne Molchi» tashkilotini o‘z ichiga oladi.

- Sog‘liqni saqlash va favqulodda vaziyatlar xizmatlari - Loyiha xodimlariga tibbiy xizmat ko‘rsatishi yoki favqulodda vaziyatda choralar ko‘rishi mumkin bo‘lgan xizmatlar.

- Ilmiy va tadqiqot muassasalari, jumladan Fanlar akademiyasi - Loyiha uchun o‘tkaziladigan ekologik tadqiqotlardan manfaatdor tashkilotlar.

4. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN ILGARI O‘TKAZILGAN HAMKORLIK TADBIRLARI HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik Loyihaning ekologik va ijtimoiy baholash jarayonining dastlabki bosqichlarida boshlangan hamda ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (ESIA) hujjatini tayyorlash davomida olib borilgan.

Davlat organlari va texnik manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik: Respublika, viloyat va tuman darajasidagi turli davlat organlari bilan yerning maqomi va mulkchilik masalalari, ekologik ruxsatnomalar, suv resurslari, transport va yirik o‘lchamli yuklarni tashishga ruxsat berish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, bandlik, madaniy meros va sog‘liqni saqlash xizmatlari bo‘yicha maslahatlashuvlar o‘tkazildi. Biologik xilma-xillik va yovvoyi tabiat masalalari yuzasidan Fanlar akademiyasi hamda O‘zbekiston qushlarni muhofaza qilish jamiyati kabi tegishli texnik va ixtisoslashgan tashkilotlar bilan ham maslahatlashildi.

Mahalliy aholi bilan hamkorlik: Muruntov mahallasi aholisi bilan maslahatlashuv uchrashuvlari o‘tkazildi. Uchrashuvlar haqida mahalliy Telegram kanali va Muruntov mahallasi orqali oldindan xabar berildi. Maslahatlashuvda ishtirok etgan ayollar bilan ta’limni qo‘llab-quvvatlash va ishga joylashish imkoniyatlari kabi masalalarni qamrab olgan alohida suhbat ham o‘tkazildi. Zarafshon shahar hokimligi va tegishli viloyat boshqarmalari bilan qo‘shimcha uchrashuv tashkil etildi.

Jamoatchilik eshituvi: Muruntov mahallasi aholisi bilan jamoatchilik eshituvi o‘tkazildi. Unda Loyiha haqida axborot taqdim etildi, ishtirokchilarga savollar berish va o‘z tashvishlarini bildirish imkoniyati yaratildi. Eshituv davomida Loyihaga nisbatan e’tirozlar bildirilmagan.

4.1.1 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik jarayonida ko‘tarilgan asosiy masalalar

Manfaatdor tomonlar bilan muloqot davomida quyidagi asosiy masalalar va qiziqish yo‘nalishlari ko‘tarildi:

- **Bandlik imkoniyatlari:** eng ko‘p ko‘tarilgan mavzu ishga joylashish bo‘ldi. Mahalla aholisi mahalliy aholi ishga olinishi-olinmasligi, qanday lavozimlar mavjud bo‘lishi va ishga qabul qilish qachon boshlanishini so‘radi. Ayollar uchun bandlik imkoniyatlari ham alohida ko‘tarildi.
- **Batareyalar xavfsizligi:** aholi batareya tizimlari bilan bog‘liq ehtimoliy xavflar, jumladan yong‘in, portlash va radiatsiya, shuningdek joriy etiladigan favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va ularga javob berish choralari haqida savollar berdi.
- **Mahalliy hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlash:** Loyihadan mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va hamjamiyat rivojiga hissa qo‘shish so‘raldi.
- **Qurilish bilan bog‘liq ta’sirlar:** qurilish davridagi ehtimoliy shovqin, chang va transport ta’sirlari hamda ularni boshqarish uchun ko‘riladigan choralar haqida savollar berildi.
- **Chiqindilarni boshqarish:** aholi ishlatilgan batareyalar va Loyiha bilan bog‘liq boshqa chiqindilar qanday boshqarilishini so‘radi.
- **Yer va ko‘chirish masalalari:** xususiy yerlar, turar joylar yoki boshqa mol-mulk Loyihadan ta’sirlanishi mumkinligi haqida savollar berildi. Loyiha davlat mulki bo‘lgan yerda joylashgani va uy xo‘jaliklarining jismoniy ko‘chirilishi kutilmayotgani tasdiqlandi.
- **Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi va kelgusidagi aloqa:** aholi kelajakda Loyiha bilan qanday bog‘lanishi, savollar, tashvishlar yoki shikoyatlarni qanday yetkazishi mumkinligini so‘radi.

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik natijalari ESIAga hamda Loyihaning salbiy ta'sirlarni kamaytirish, boshqarish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik choralarini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

5. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN REJALASHTIRILGAN HAMKORLIK

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qurilish va foydalanish bosqichlarida davom ettiriladi. Rejalashtirilgan tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qurilish ishlari boshlanishidan oldin Muruntovda aholi bilan maslahatlashuv sessiyalarini, erkaklar va ayollar uchun alohida sessiyalarni o'tkazish.
- Zarafshon va Tomdi hokimliklari, Muruntov mahallasi va uning Telegram kanali orqali qurilish ishlari, bandlik va xaridlar imkoniyatlari hamda ekologik va ijtimoiy masalalar yuzasidan Loyiha haqidagi yangiliklarni muntazam taqdim etish.
- Loyiha hujjatlarini quyidagi "Loyiha haqidagi axborotni oshkor qilish" bo'limida ko'rsatilgan tillarda internet orqali hamda mahalliy idoralarda bosma shaklda jamoatchilikka taqdim etish.
- Loyihaning borishi va tegishli davlat organlari ishtirokini talab qiladigan masalalar bo'yicha ular bilan muntazam hamkorlik qilish.
- Xodimlarning o'z huquqlari va mavjud shikoyat mexanizmlaridan xabardor bo'lishini ta'minlash maqsadida ular bilan muloqot olib borish.

Loyiha ishlab chiquvchisi mahalliy aholi uchun asosiy aloqa nuqtasi sifatida Loyihaning HSSE menejerini tayinlaydi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik tadbirlari qaydlari yuritiladi va har oy yangilanadi.

6. SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI

Loyiha ishlab chiquvchisi manfaatdor tomonlarga Loyiha yuzasidan tashvish yoki shikoyatlarini bildirish va javob olish imkonini beradigan aniq va qulay shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini yuritadi.

Qo'llanish doirasi va murojaat qilish huquqi: mexanizm mahalliy aholi, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ilmiy muassasalar va boshqa tashqi manfaatdor tomonlar uchun ochiq. U Loyiha faoliyatiga, shuningdek Loyiha ishlab chiquvchisi, qurilish pudratchisi, subpudratchilar va yetkazib beruvchilarning xatti-harakatlariga oid masalalarni qamrab oladi. Loyiha xodimlari Loyihaning Mehnat va mehnat sharoitlarini boshqarish rejasi (LWCMP) doirasida tashkil etilgan alohida xodimlar shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmidan foydalanishlari mumkin. Ushbu ikki mexanizm alohida faoliyat yuritadi, biroq Loyiha menejeri tomonidan muvofiqlashtiriladi. Agar shikoyat noto'g'ri kanal orqali kelib tushsa, u kechiktirmasdan tegishli mexanizmga yo'naltiriladi.

Shikoyat yuborish kanallari: tashvish yoki shikoyatlar quyidagi usullar orqali yuborilishi mumkin:

- shikoyat shaklini to'ldirib, uni Loyiha ofisi, Muruntov mahalla fuqarolar yig'ini idorasi yoki Tomdi tuman hokimligidagi shikoyatlar qutisiga tashlash;
- Loyihaning HSSE menejeri bilan telefon yoki elektron pochta orqali bevosita bog'lanish;
- Loyiha ishlab chiquvchisining veb-sayti orqali murojaat qilish;
- Loyihaning HSSE menejeriga shaxsan yoki telefon orqali, mahalla vakillari yoki mahalla fuqarolar yig'ini orqali, shuningdek jamoatchilik uchrashuvlarida og'zaki ravishda murojaat qilish. Agar shaxs shikoyatni yozma ravishda taqdim eta olmasa yoki taqdim etishni istamasa, Loyihaning HSSE

menejeri shikoyatni uning nomidan yozib oladi va tasdiqlash uchun murojaatchiga qayta o‘qib beradi. Og‘zaki tarzda taqdim etilgan shikoyatlar yozma ravishda taqdim etilgan shikoyatlar bilan bir xil maqomga ega.

Vaqtinchalik tartiblar: Loyiha ofisi tashkil etilib, Loyihaning HSSE menejeri tayinlangunga qadar shikoyatlar Muruntov mahalla fuqarolar yig‘ini idorasi yoki Tomdi tuman hokimligiga, mahalla fuqarolar yig‘ini yoki Muruntov mahallasining Telegram kanali orqali, yoxud Shikoyatlar bo‘yicha ma’lumot varaqasida ko‘rsatilgan Loyiha ishlab chiquvchisining vaqtinchalik aloqa nuqtasiga taqdim etilishi mumkin. Yakuniy aloqa ma’lumotlari qurilish ishlari boshlanishidan va shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi ishga tushirilishidan oldin tasdiqlanadi hamda jamoatchilikka oshkor qilinadi.

Shikoyatlarni qayerda va qanday yuborish mumkinligini tushuntiruvchi e’lonlar mexanizm barcha manfaatdor tomonlar uchun qulay bo‘lishi maqsadida asosiy joylarga joylashtiriladi.

Shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayoni: asosiy bosqichlar quyidagilardan iborat:

- **Ro‘yxatga olish:** kelib tushgan barcha shikoyatlar Loyihaning shikoyatlar reyestriga kiritiladi.
- **5 ish kuni ichida qabul qilinganini tasdiqlash:** Loyihaning HSSE menejeri shikoyat kelib tushganini tasdiqlash uchun murojaatchi bilan uning o‘zi afzal ko‘rgan aloqa usuli orqali bog‘lanadi.
- **Tekshirish:** Loyihaning HSSE menejeri shikoyatni ko‘rib chiqadi va tekshiradi, uning sababini aniqlaydi hamda tegishli tuzatish yoki bartaraf etish choralarini belgilaydi.
- **30 kun ichida javob berish:** taklif etilgan yechim Loyiha menejeri tomonidan tasdiqlanadi va murojaatchiga yetkaziladi. Agar tekshiruv ushbu muddat ichida yakunlanmasa, murojaatchiga mazkur muddat tugashidan oldin bu haqda xabar beriladi va yangi muddat taqdim etiladi. Shikoyat yopilgunga qadar uning ko‘rib chiqilishidagi jarayon haqida 30 kundan oshmaydigan vaqt oralig‘ida muntazam ravishda ma’lumot berib boriladi.
- **Yopish:** yechim kelishilib, amalga oshirilgach, Loyihaning HSSE menejeri murojaatchiga natija va shikoyat yopilgan sanani qayd etgan holda shikoyatning yopilganligi to‘g‘risida rasmiy bildirishnoma taqdim etadi. Shikoyatning yopilganligi shikoyatlar reyestrida ham qayd etiladi.
- **Yuqori bosqichga o‘tkazish:** murojaatchi taklif etilgan yechimdan qoniqmasa, shikoyat Loyiha menejeriga, zarurat tug‘ilganda esa Loyiha ishlab chiquvchisining bosh ofisi va yuqori rahbariyatiga yuborilishi mumkin. Masala hal etilmay qolsa, murojaatchiga tegishli davlat organlari, sudlar yoki AIIBning Loyihadan ta’sirlangan shaxslar mexanizmi (Project-affected People’s Mechanism — PPM) kabi masalani hal etishning boshqa mavjud imkoniyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Asosiy kafolatlar:

- Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmidan foydalanish bepul.
- Shikoyat bildirgani uchun hech kimga nisbatan taqib qilish qo‘llanilmaydi yoki uning ahvoli yomonlashtirilmaydi.
- Shikoyatlar maxfiy tarzda yoki anonim ravishda yuborilishi mumkin. Anonim shikoyatlar boshqa barcha shikoyatlar bilan bir xil tartibda tekshiriladi. Bunday hollarda murojaatchiga bevosita javob yuborish imkoni bo‘lmagani sababli, ularning ko‘rib chiqish natijalari shikoyatlar bo‘yicha ma’lumot oshkor qilinadigan joylarda, mahalla fuqarolar yig‘ini hamda Muruntov mahallasining Telegram kanali orqali jamoatchilikka yetkaziladi.

- Shikoyat mexanizmidan foydalanish sudga yoki boshqa mavjud huquqiy himoya vositalariga murojaat qilish huquqini cheklamaydi.
- Agar shikoyat Loyiha rahbariyatining a'zosi, shikoyatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul shaxs yoki ushbu mexanizmni boshqarishda ishtirok etuvchi boshqa shaxsga taalluqli bo'lsa, shikoyat Loyiha jamoasini chetlab o'tgan holda bevosita Loyiha ishlab chiquvchisining Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'limiga taqdim etilishi mumkin. Shikoyatda nomi ko'rsatilgan har qanday shaxs uni ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etmaydi; xolislikni boshqa yo'l bilan ta'minlash imkoni bo'lmagan hollarda esa mustaqil ko'rib chiquvchi tayinlanishi mumkin.

Nozik mazmundagi shikoyatlar: genderga asoslangan zo'ravonlik va tazyiq (GBVH), shuningdek jinsiy ekspluatatsiya, suiiste'mol va tazyiq (SEAH) bilan bog'liq shikoyatlarga maxsus tartiblar qo'llanadi. Ushbu tartiblar xalqaro miqyosda tan olingan ilg'or amaliyotga asoslanadi va jabrlangan shaxs manfaatlarini markazga qo'yuvchi yondashuvni qo'llaydi. Shikoyatlar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mas'ul shaxslar, jumladan kamida bir nafar ayol va bir nafar erkak mas'ul shaxs tomonidan ko'rib chiqiladi; shaxsni aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar shikoyatlar reyestrida qayd etilmaydi. Jabrlangan shaxs standart shikoyat kanallaridan foydalanmasdan va Loyiha bilan oldindan bog'lanmasdan, bevosita belgilangan mas'ul shaxsga yoki ixtisoslashgan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga murojaat qilishi mumkin. Qurilish boshlanishidan oldin Loyiha ishlab chiquvchisi mavjud tibbiy, psixologik-ijtimoiy, huquqiy, himoya va boshpana xizmatlarini aniqlaydi va hujjatlashtiradi, shunda jabrlangan shaxslar tegishli yordam xizmatlariga yo'naltirilishi mumkin. Jabrlangan shaxsning roziligisiz uni boshqa xizmatga yo'naltirish yoki boshqa choralarni ko'rish amalga oshirilmaydi.

AIIBNING LOYIHADAN TA'SIRLANGAN SHAXSLAR MEXANIZMI: LOYIHA DOIRASIDAGI SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI LOYIHA BILAN BOG'LIQ TASHVISHLARNI BILDIRISH VA HAL ETISHNING ASOSIY VOSITASI HISOBLANADI. BUNDAN TASHQARI, AIIB O'ZINING MUSTAQIL LOYIHADAN TA'SIRLANGAN SHAXSLAR MEXANIZMINI (PROJECT-AFFECTED PEOPLE'S MECHANISM — PPM) YURITADI. AIIB O'ZINING EKOLOGIK VA IJTIMOIY SIYOSATINI AMALGA OSHIRMAGANI NATIJASIDA SALBIY TA'SIRGA UCHRAGAN DEB HISOBLOVCHI SHAXSLAR USHBU MEXANIZMGA MUROJAAT QILISHLARI MUMKIN. PPM OXIRGI CHORA SIFATIDA QO'LLANILADIGAN MEXANIZM BO'LIB, LOYIHANING SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMINI ALMASHTIRMAYDI; ODATDA, SHAXSLAR AVVALO MASALANI LOYIHA ORQALI HAL ETISHGA HARAKAT QILISHLARI KUTILADI. BATAFSIL MA'LUMOT AIIBNING RASMIY VEB-SAYTIDA MAVJUD

7. MONITORING VA HISOBOT BERISH

Loyiha ishlab chiquvchisi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik samaradorligini kuzatib boradi va hamkorlik tadbirlari hamda kelib tushgan shikoyatlar bo'yicha qaydlarni yuritadi. Monitoring kelib tushgan va hal etilgan shikoyatlar soni, ularni hal etish muddatlari hamda qamrab olish qiyinroq bo'lgan guruhlarning ishtiroki kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Monitoring kamchiliklar yoki takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlasa, hamkorlik yondashuvi tegishlicha o'zgartiriladi.

8. LOYIHA HAQIDAGI AXBOROTNI OSHKOR QILISH

Quyidagi Loyiha hujjatlari jamoatchilikka taqdim etiladi:

- Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (ESIA), shu jumladan Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (ESMP) - ingliz tilida;
- Notexnik qisqacha mazmun (NTS) - o'zbek va ingliz tillarida;

- Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (SEP) - ingliz tilida; hamda
- SEPning ushbu qisqacha mazmuni — o‘zbek va ingliz tillarida.

Ushbu hujjatlar Loyiha ishlab chiquvchisining veb-saytida, shuningdek Loyiha ofisi, Muruntov mahalla fuqarolar yig‘ini idorasi va Tomdi tuman hokimligida bosma shaklda mavjud bo‘ladi. Loyihaning HSSE menejeri aloqa ma’lumotlari SEPda va quyida keltirilgan.

Ma’lumotlarni oshkor qilish 30 kun davomida amalga oshiriladi va bu haqda Zarafshon shahar hamda Tomdi tuman hokimliklari va tegishli mahallalar, jumladan mahalla fuqarolar yig‘ini orqali bildirishnomalar va e’lonlar beriladi, shuningdek Muruntov mahallasining Telegram kanalida ma’lumot joylashtiriladi. Ushbu oshkor qilish davrida fikr-mulohazalar Loyihaning HSSE menejeri yoki yuqorida tavsiflangan shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi orqali taqdim etilishi mumkin.

Yuqoridagi hujjatlar Loyiha ishlab chiquvchisining quyidagi veb-saytida taqdim etiladi: www.masdar.ae

Bundan tashqari, yuqoridagi hujjatlarning bosma nusxalari quyidagi manzillarda mavjud bo‘ladi. Ushbu hujjatlar Loyiha davomida jamoatchilik uchun ochiq bo‘lib qoladi va zaruratga ko‘ra yangilanadi.

Loyiha ofisi	**Muruntov mahallasi – mahalla idorasi**	**Tomdi tuman hokimligi**
Manzil: Telefon:	Manzil: Navoiy viloyati, Zarafshon shahri, Muruntov MFY, Kimyogarlar mavzesi, Tadbirkorlar ko‘chasi, 19-uy Telefon: +998933185140	Manzil: Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Yangi Tomdi qo‘rg‘oni Telefon: +998795821317